XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-033-12-180-K/24 Urganch shahar

Urganch shahrining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasi, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli qonuniga muvofiq Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining 2024-yil 23-dekabrdagi 01/08-38/107-sonli xati hamda xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli qonuni hamda xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Urganch shahar mahalliy byudjetining 2025-yil uchun daromadlari 155 935,1 mlrd. so‘m, xarajatlari 155 935,1 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2025-yil uchun Urganch shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2026-2027-yillar uchun maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga;

2025-yil uchun Urganch shahar mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatgichlari 2-ilovaga;

2025-yil uchun Urganch shahar mahalliy byudjetining asosiy xarajat koʻrsatkichlari 3-ilovaga;

2025-yil uchun Urganch shahrining shahar byudjetidan xududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdori 4-ilovaga**;**

2025-yil uchun umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalari meʻyori 5-ilovaga**;**

2025-yil uchun Urganch shahar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining chegaraviy xajmi 6-ilovaga

2025-yil uchun Urganch shahar mahalliy byudjetida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2025-yil uchun Urganch shahar mahalliy byudjeti zaxira jamgʻarmasi xajmi 1 787,1 mln. soʻm miqdorda belgilansin.

Urganch shahar mahalliy byudjetining 2025-yil zaxira jamgʻarmasi tegishli byudjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarning kamida (bunda zahira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtomoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtiriladi) 1,0 foiz miqdorida shakllantirilsin.

5. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga koʻra amalga oshiriladigan qoʻshimcha tadbirlarni moliyalashtirish shahar mahalliy byudjetlarining qoʻshimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilansin.

6. Urganch shahar hokimining birinchi oʻrinbosari (J.Eshchanov), Urganch shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi (J.Sapayev), Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllanishini ta’minlasin;

shuningdek, mahalliy byudjeti prognoz koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning toʻliq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qoʻshimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

7. Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash boʻyicha xatlovlar oʻtkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

8. Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya‘ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklansin.

mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish tavsiya etilsin.

9. Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev), Kadastr agentligi Urganch shahar bo‘limi (S.Pirov) 2025-yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, shahardagi mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

10. Majburiy ijro byurosi Urganch shahar bo‘limi (J.Xajiyev) Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklansin.

11. Urganch shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Saratonov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan

soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

12. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra shaharda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «e-auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklansin.

13. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

14. Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Sapayev):

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

15. Kengashning mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilish;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

16. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) shahar mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tegishli tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilishini ta’minlasin.

17. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

18. Urganch shahar hokimining matbuot kotibi (B.Xudayberganov), qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Xalimov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi B.Radjapov

Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-033-12-180-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Urganch shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2026-2027-yillar uchun maqsadli mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	2026-yil uchun mo‘ljal	2027-yil uchun mo‘ljal
1.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	105,5	105,9	106,3
2.	Xizmat korsatishning o‘sish sur’ati, foizda	118,3	120,5	118,4
3.	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	102,5	102,6	102,7
4.	Qurilish ishlarining o‘sish sur’ati, foizda	108,9	109,6	108,7

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-033-12-180-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**155 935 074,0**
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	42 966 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i *(8 foiz)*	35 482 800,0
4	Aksiz solig‘i, jami	
	shu jumladan:	
	- alkogol mahsulotlari	
	- benzinni, dizel yonilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (15 foiz)	4 900 500,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	24 904 774,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (25 foiz)	9 430 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 823 000,0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	13 397 000,0
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)	9 619 000,0
12	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar	
13	Davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	
14	O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	
15	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari)	
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	4 412 000,0

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-033-12-180-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Urganch shahar mahalliy byudjetining 2024-yilgi asosiy xarajat ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		Miqdori
	XARAJATLAR-JAMI	**155 935 074**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI**	**54 604 274**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	48 062 466
	- maktabgacha ta’lim	19 189 514
	- umumiy ta’lim	28 872 952
1.2	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	6 196 292
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 215 805
	- sport	4 980 487
1.3	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	
1.4	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	23 100
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	322 416
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**50 435 835**
2.1	Obodonlashtirish	44 133 835
2.2	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
2.3	маҳсус техника сотиб олиш харажатлари	760 000
2.4	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 302 000
3.	**DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINI SAQLASH**	**22 102 650**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	22 102 650
4.	**ZAHIRA JAMG‘ARMASI**	**1 787 069**
5.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**27 005 246**
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*25 139 112*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi (mening maktabim)	*1 866 134*

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-033-12-180-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Urganch shahrining shahar byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**155 935 074**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**155 935 074**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**48 062 466**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**48 062 466**
	shundan:	
	Maktabgacha ta’lim	19 189 514
	Umumiy ta’lim	28 872 952
2	**Urganch shahar madaniyat bo‘limi**	**1 342 633**
	shu jumladan:	
	Madaniyat bo‘limi	126 828
	Madaniyat markazlari	1 215 805
3	**Urganch shahar bolalar va o‘smirlar sport maktabi**	**4 980 487**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 980 487
4	**Obodonlashtirish xarajatlari**	**48 133 835**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**48 133 835**
	Obodonlashtirish xarajatlari	41 938 735
	Ichki xo’jalik avtomobil yo’llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
	maxsus texnika sotib olish xarajatlari (PF-46 xazon yig’ish texnikasi)	1 005 000
	PF-46 sug‘orish tizimini yaxshilash	430 100
	maxsus texnika sotib olish xarajatlari (VM-665 Katok 6-8t texnika)	760 000
5	**Urganch shahar veterinariya bo‘limi**	**2 504 555**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 504 555
6	**Urganch shahar yoshlar ishlari agentligi**	**5 153 852**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 153 852
7	**Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 801 796**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 801 796
8	**Urganch shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1 961 403**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 961 403
9	**Hokimlik**	**34 333 592**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**34 333 592**
	shundan:	
	Urganch shahar hokimlikni saqlash xarajatlari	2 599 852
	Urganch shahar hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limi	322 416
	Zaxira jamg‘armasi	1 787 069
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	246 263
	Urganch shahar Xalq qabulxonasi	47 646
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	23 100
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi (mening maktabim) Mahalla byudjeti jamg’armasi mablag’lari	25 139 112 1 866 134 2 302 000
10	**Urganch shahar oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**1 979 340**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 979 340
11	**Urganch shahar xokim yordamchilari**	**4 681 115**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 681 115

Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-033-12-180-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Aylanma-dan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (Hududiy soliq to‘lovchilar)	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Alkogol maxsulotlari va benzinni, dizel yonilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilar-ga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i (Hududiy soliq to‘lovchilar)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (Hududiy soliq to‘lovchilar)	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (Hududiy soliq to‘lovchilar)	Jismoniy shaxslar-dan olinadi-gan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalangan-lik uchun soliq (Yirik va Hududiy soliq to‘lovchilar)	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar

1	Urganch shahri	100	8	100	0	15	100	25	100	100	100	100

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-033-12-180-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Mahalliy byudjetlarning 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad*	Xarajat
Urganch shahri	155 935 074	155 935 074

*tamaki, alkogol mahsulotallari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni hisobga olmagan holda

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-033-12-180-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Shahar mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

Shahar (tuman)lar	**Miqdor**
Urganch shahri	945 000,0